



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEK VA TURK TILLARINING QIYOSIY TAHLILI (COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND TURKISH LANGUAGES)

Mo'minova Nigora Shuhratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti
xorijiy tillar va adabiyoti fakulteti
1-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: **M.Qurbonova**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

ABSTRACT: This study compares Uzbek and Turkish languages, focusing on their phonetic, grammatical, lexical, and syntactic features. Key similarities include agglutinative morphology, shared basic vocabulary, and similar word order. The research highlights both shared Turkic structures and unique developments in each language.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'zbek va turk tillari, ularning fonetik, grammatik, leksik va sintaktik xususiyatlariga e'tibor qaratgan holda qiyoslanadi. Asosiy o'xshashliklarga agglutinativ morfologiya, umumiy asosiy lug'at boyligi va o'xshash so'z tarkibi kiradi. Maqola umumiy turkiy tuzilmalarni ham, o'zbek va turk tillarining o'ziga xos rivojlanishini ham yoritadi.

KEYWORDS: Uzbek languages, Turkish languages, comparative linguistics, phonetics, grammar, vocabulary, Turkic language, syntax.

KALIT SO'ZLAR: O'zbek tili, turk tili, turkiy til, qiyosiy tilshunoslik, fonetika, grammatika, sintaksis, lug'at.

O'zbek va turk tillari turkiy tillar oilasining ikki yirik vakili bo'lib, ular umumiy ildizdan kelib chiqqan. Har ikkala tilning grammatikasi, leksikasi va fonetikasidagi o'xshashliklar umumturkiylikning saqlanib qolganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, geografik ajralish, tarixiy jarayonlar hamda tashqi tillarning ta'siri natijasida farqli jihatlar ham vujudga kelgan.

Bunga qaramasdan, o'zbek va turk tillarining fonetik tizimi o'zaro yaqin bo'lib, talaffuzi yozilishiga mos keladi. Ikkala tilda ham unli uyg'unligi va jarangsiz - jarangli undoshlari mavjud. Farqlar esa, misol uchun, turk tilidagi yumshoq o,u,l tovushlarining o'zbek tilida yo'qolganligida ko'rinadi.

Shuningdek, ikkala til ham agglutinativ bo'lib, qo'shimchalar orqali ma'no hosil qiladi. **Misol uchun: uylaringizdan - evlerinizden.** Fe'llar zamon jihatidan yaqin, farqlar hozirgi zamon va kelasi zamon shakllarida aniqlanadi. Kelishik qo'shimchalari ham o'xshash: **kitobni-kitabi** turk tilida **I tovushi** so'zga qo'shilganda **o'zbek tilidagi -ni** ya'ni **tushum kelishigini** anglatadi.

***Uyga- okula** bu so'zda **a tovushi jo'nalish kelishigi -ga** ni ifodalamoqda. ***Maktabda-okulda** bu so'zdagi qo'shimcha ham **o'rin -**



payt kelishigi ham **turk tilida**, ham **o`zbek tilida** birdek yozilib, bir xil ma`noni anglatmoqda.

Shu bilan birga, har ikki tilning leksik jihati ham o`xshash. Masalan, bosh-bas, ko`z-goz, yurak-yurek, suv- su kabi va hokazo.

T/r	Ma`nosi	O`zbek	Turk
1.	Tushum kelishigi	-ni	-I,-I,-u,-u`
2.	Jo`nalish kelishigi	-ga,-ka,-qa	-a,-e
3.	O`rin-payt kelishigi	-da	-da,-de

Sintaktik tuzilmasi:

Ikkala til ham – **ega +to`ldiruvchi+hol+kesim** tarkibida bo`ladi.

***O`zbek:** Men uni hozir ko`rdim.

***Turk:** Ben onu simdi gordum.

Ko`rinib turibdiki, gap ohangida ham o`xshashlik bor. Kesimning oxirida kelishi har ikki tilning umumiy grammatik modelini ko`rsatadi.

Shu bilan birga, o`zbek va turk tillarining grammatik jihatdan yana bir o`xshash tomoni- bu ularning zamoni ,ya`ni fe`l tizimida.

Misol uchun:

- **O`tgan zamon:** bordim-gittim
- **Hozirgi zamon:** ketayapman – gidiyorum
- **Kelasi zamon:** boraman- gidecegim

Farqi shundaki, turk tilida zamonning yagona shakli –yor qo`shimchasi orqali yasaladi. O`zbek tilidagi – yap esa qisqartirish natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, o`zbek tilida q va g` tovushlari faol ishlatiladi, turk tilida esa ular mos tarzda k va g` bilan ifodalanadi. Bu har ikki tilning fonetik o`zgarishlar tarixiga aloqador.

O`zbek tili asrlar davomida arab-fors tillarining ta`sirida bo`lgan bo`lsa-da, turk tili XX asr boshidagi Atatu`rk islohoti bilan arabcha-forscha so`zlarni kamaytirgan.

Natijada:

- **O`zbek:**ilm, maktab, saboq, davr, vaqt, sabab.
- **Turk:** bilim, okul, ders, donem, zaman, sebeb.

Bu leksik farq har ikki tilning tarixiy taraqqiyotidagi yo`nalishlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, o`zbek va turk tillari umumturkiy ildizga ega bo`lgani uchun fonetik, grammatik va leksik jihatdan juda yaqin. Ammo tarixiy rivojlanish, geografik ajralish va tashqi tillarning ta`siri natijasida farqlar ham shakllangan. Shuningdek, nafaqat o`zbek va turk tillarini , balki boshqa tillarni ham qiyoslash tilshunoslikni chuqurroq anglashga , til tarixini o`rganishga va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.